

KASBIY KOMPETENSIYA HAMDA O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Karimova Kamola Komil qizi,

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi tayanch doktoranti. Buxoro davlat pedagogika instituti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.023>

Annotatsiya. O'qituvchi kasbiy faoliyatini yuksak darajada tashkil etishining yetakchi tamoyillaridan biri o'ziga xos pedagogik mahoratga ega bo'lishi hisoblanadi. Pedagogik mahoratning shakllanishi, jarayonda toblanib, takomillashib borishi bevosita muntazam ravishda o'z ustida ko'proq ishlash, kasbiy kompetensiya hamda pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirib borishni talab etadi. Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, o'quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishiga o'rgatish hamda ularda dunyo miqyosida ta'lim jihatidan yetakchi bo'lgan mamlakat o'quvchilari bilan bahslashga oladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish, albatta, pedagog o'qituvchilar zimmasida hisoblanadi. O'qituvchi qanchalik keng doirada fikrlay olsa, ish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ya olgan bo'lsa, davr talabiga muvofiq tarzda mushohada yuritgan holda o'zida ko'pgina kasbiy qobiliyatlarni mujassam etgan bo'lsa, bu nafaqat maktabning kelajagi balki jamiyatning, butun mamlakatning eng katta yutuqlaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada kompetensiya, kompetentlik va shu bilan birgalikda kasbiy kompetensiya atamalari yuzasidan izlanish olib borgan olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilib, qarashlaridagi umumiylik hamda bir-biriga zid jihatlari tahlil qilingan. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga doir bir qancha masalalar nazariy jihatdan o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, ijtimoiy kompetensiya, maxsus kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, informatsion kompetensiya, innovatsion kompetensiya, texnologik kompetensiya, xalqaro ilg'or tajribalar.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

Каримова Камола Комил кизи

Факультет дошкольного и начального образования, докторант по специальности теория и методика воспитания и обучения (начальное образование). Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация. Одним из ведущих принципов организации профессиональной деятельности учителя на высоком уровне является обладание уникальным педагогическим мастерством. Формирование педагогического мастерства, его приобретение и совершенствование в процессе напрямую требует большей работы над собой, развития профессиональной компетентности и педагогического мастерства. Воспитать всесторонне развитую личность, научить студентов применять свои знания в повседневной жизни, сформировать знания, умения, умения и компетенции, способные конкурировать со студентами ведущих стран мира по уровню образования. Разумеется, педагогика – это обязанность учителя. Чем более широко может мыслить учитель, если он умеет правильно управлять своей работой, если он обладает многими профессиональными навыками, соблюдая при этом требования времени, то не только будущее школы считается одним из крупнейших достижений общества и всей страны. В данной статье изучены мнения ученых, проводивших исследования относительно терминов компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, проанализированы общие и противоречивые стороны их взглядов. Ряд вопросов, связанных с развитием профессиональной компетентности, теоретически слабо выражен.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная деятельность, социальная компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, информационная компетентность, инновационная компетентность, технологическая компетентность, лучшие международные практики.

PROFESSIONAL COMPETENCE AND THE SCIENTIFIC BASIS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHERS

Karimova Kamola Komil qizi,

Pre-school and primary education faculty, doctoral student, majoring in the theory and methodology of education and training (primary education). Bukhara State Pedagogical Institute

ABSTRACT. *One of the leading principles of organizing a teacher's professional activity at a high level is to have unique pedagogical skills. The formation of pedagogical skill, its acquisition and improvement in the process directly requires more work on oneself, development of professional competence and pedagogical skills. Educating a well-rounded person, teaching students to apply their knowledge in everyday life, and forming knowledge, skills, skills and competences that can compete with the students of the world's leading countries in terms of education, Of course, pedagogy is the responsibility of teachers. The more a teacher can think in a wide range, if he can manage his work correctly, if he has many professional skills while observing in accordance with the requirements of the time, it is not only the future of the school is considered one of the biggest achievements of society and the whole country. In this article, the opinions of scientists who have conducted research on the terms competence, competence, and professional competence have been studied, commonalities and contradictory aspects of their views have been analyzed. A number of issues related to the development of professional competence are theoretically poorly expressed.*

Keywords: *competence, professional competence, professional activity, social competence, special competence, personal competence, informational competence, innovative competence, technological competence, international best practices.*

Kirish. Jahon miqyosida ta'limga kompetensiyaviy yondashish, raqobatbardosh ta'lim shakli hamda bitiruvchilarni shakllantirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini yuksaltirish, integratsion ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish masalalari yuzasidan turli ishlar olib borilmoqda.

Darhaqiqat, yurtimizdayuzberayotgano'zgarishlarorasida o'qituvchi, pedagoglarning kasbiy faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, bilimlarini jahon standartlariga mos tarzda yanada takomillashtirish masalalari eng muhim jihatga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini belgilab beruvchi eng asosiy tamoyillardan biri hisoblangan kasbga oid ko'nikmalarni yuksak darajada egallashi, ularda pedagogik jarayonni yuqori saviyada olib borishini ta'minlaydigan sifatlarni shakllantirish bo'yicha tizimli ravishda ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o'qituvchi-pedagoglarga qarata "Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir",- deya aytgan so'zlari ularga qaratilayotgan alohida e'tiborni yana bir bor ta'kidladi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi pedagoglardagi metodik kompetentlikni rivojlantirish va ular uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish masalalari yildan yilga o'zining dolzarblilik mohiyatini yo'qotmay kelmoqda. O'qituvchilardan har jihatdan mukammal pedagogik mahoratga ega kadr tayyorlash uchun xizmat qiladigan amaliy jihatdan yuqori natija beradigan uslubiy tavsiyalar yaratish muhim hisoblanadi.

Metodlar. "Kasbiy kompetensiya", "pedagogik mahorat" hamda "kasbiy faoliyat" masalalariga urg'u berishdan avval "kompetensiya", "kompetentlik" atamalariga alohida e'tibor qaratish joiz. Kompetensiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilida "munosib", "to'g'ri keladi" yoki "mos keladi" ma'nolarini anglatadi. Kompetensiya faoliyat jarayonida egallangan nazariy bilimlarni unumli qo'llash hamda yuksak darajadagi kasbiy mahorat, qobiliyat va malakani hosil qilish hisoblanadi. "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari bir-birini to'ldirib, aynan bir jarayonning belgisi tarzida ishlatiladi. Ammo kompetentlik borasida bir qancha olimlar turlicha fikrlar keltirib o'tganini ko'rishimiz mumkin:(1-rasm)



1-rasm. Kompetentlik borasidagi olimlarning bildirgan fikrlari. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik.

Bugungi kunda kompetensiya, kompetentlik atamalarini har bir sohada uchratish qiyin emas. Ko'pgina sohalar, xodimlar faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish davr talabiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, pedagoglar, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda kasbiy kompetentlik nima ekanligi haqida fikr yuridagigan bo'lsak, kasbiy kompetensiya-bu kasbiy faoliyat jarayonida mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalarni egallay olishi hamda ulardan amaliy jihatda samarali foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi. Kompetensiya atamasiga berilgan ta'riflarni o'rgangan holda mulohaza yuritib, shuni aytish mumkinki, kasbiy kompetensiyani egallash pedagogdan mutlaq yangi bilim va malakalrni talab etmaydi, aksincha bor bilimni yanada mustahkamlash, amaliyotda, kundalik hayotda qo'llay olishda va shu bilan birgalikda mavjud bilimlarni integratsion holda boyitishga alohida urg'u qaratadi. Zero, davr talabi ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni tashkil qilish hisoblanadi. Bu talabni bajarish esa, o'qituvchida ham integratsiya borasidagi chuqur bilimga ega bo'lishni taqazo etadi.

Kasbiy kompetensiya namoyon bo'ladigan holatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- pedagog o'ziga aniq va tanish bo'lmagan vazifa bilan yuzlashishi;
- murakkab jarayon;
- qarama-qarshi ma'lumotlarni qo'llashni taqazo etadigan vaziyat;
- har qanday kutilmagan holatda ham harakat strategiyasiga ega bo'lishi.

Yuqoridagi noodatiy holatlarda pedagog o'zini namoyon qilishida undagi kasbiy kompetentlik juda yaxshi shakllangan bo'lishi lozim. Bunday holatlarga o'qituvchilarni tayyorlashda turli metod va usullardan foydalanish foydadan holi emas. "Muammoli vaziyat", "T-sxema", qiyoslash, taqqoslash hamda analogiya kabi metodlarni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlab borish jarayonida muntazam qo'llash, albatta, o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi. Kasbiy faoliyatga kirishadigan bo'lg'usi pedagog nafaqat ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishni, balki turli muammoli holatlarda bilimlaridan foydalangan holda eng maqbul yechimni topa olishga tayyor holatda bo'ladi.

Pedagogik-psixologik va (maxsus) fanlar bo'yicha bilimlar kasbiy kompetensiyaga egalik qilish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilmaydi, bu bilimlarning ko'pchiligi, umumiy holatda asosan, nazariy, amaliy va metodologik bilimlar sanaladi. Ular esa o'qituvchining intellektual amaliy malaka va mahoratini oshishiga sabab bo'ladi. Pedagogik mahorat keng qamrovli uzluksiz faoliyat bo'lib, shaxs kamoloti uchun xizmat qiladi. Bu tushuncha nazariy bilimlarning bo'lg'usi o'qituvchilar amaliy tayyorgarligidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Natijalar. Mutaxassisdagi kasbiy kompetensiya negizida mujassabo'ladigan bir nechta jihatlar mavjud bo'lib, ular quyidagicha tavsiflanadi:

Ijtimoiy kompetentlik- ijtimoiy hayotda faollikni talab etadigan ko'nikmalarga ega bo'lish va subyektlar bilan o'zaro muloqotga kirisha bilish.

Maxsus kompetentlik- kasbiy-pedagogik jarayonni tashkil eta olish, kasbiy-pedagogik vazifalarni hal eta olish, o'z faoliyati natijalarini real hamda oqilona baholay bilish. Maxsus kompetentlik ham o'z ichida bir qanvha bo'linishlarga ega bo'lib, ular:

psixologik kompetentlik-pedagogik jarayonda sog'lom muhitni yarata olish, jarayonda yuzaga keladigan, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida oldini olish;

metodik kompetentlik- kasbiy faoliyatni metodik jihatdan to'g'ri tashkil eta olish, ta'lim jarayonida metod, usul va vositalardan o'z o'rnida, oqilona foydalana bilish;

informatsion kompetentlik- o'z faoliyati davomida kerakli, muhim, foydali ma'lumotlarni topa olishi va shu bilan birga ulardan maqsadli, o'rinli foydalana bilishi;

kreativ kompetentlik- pedagogik jarayonga ijodiy va tanqidiy yondosha bilish hamda o'zidagi ijodkorlik qobiliyatini ko'rsata bilishi;

shaxsiy kompetentlik- doimo kasbiy malakalarini takomillashtirishga harakat qilishi;

kommunikativ kompetentlik- ta'lim jarayoniga aloqador barcha shaxslar bilan o'zaro samimiy muloqot shaklini amalga oshira olishi;

innovatsion kompetentlik- ta'lim sifatini yaxshilash hamda jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladigan xalqaro ilg'or tajribalar, innovatsiyalar bilan tanish bo'lishi va ularni amaliyotda tadbiq eta olishi;

texnologik kompetentlik- bilim, ko'nikma va malakalarni boyitib borishga yordam beradigan zamonaviy texnologiya vositalaridan foydalana olishi;

ekstremal kompetentlik- favqulodda vaziyatlarda, shuningdek, kuchli ziddiyatlar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qila olishi hamda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida kasbiy kompetensiyaga erishishini ta'minlaydigan jihatlar mavjud.

Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan pedagogda o'z aksini topadigan jihatlar

1. Egallagan bilimlarini muntazam ravishda boyitib borishga harakat qiladi. Bu jarayonni amalga oshirish o'qituvchida doimiy ravishda harakatda bo'lish, maxsus kompetentlikni talab etadi.

2. Yangi axborotlarni o'zlashtirishga intiladi. Informatsion kompetentlik asosida ish olib borish bilan belgilanadigan jarayon hisoblanadi.

3. Davr talablarini chuqur anglay oladi. Bu jihat ijtimoiy va kreativ kompetenliklarni o'zida mujassam etgan holatda o'z aniq ifodasini topadi.

4. Doimo yangi bilimlarni izlab topishga chanqoq bo'ladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, innovatsion kompetensiya bu kabi jihatlar shakllanishida katta xizmat qiladi

5. Olgan yangi axborotlarni qayta ishlaydi va kundalik hayotdan o'z o'rnida qo'llay oladi. Shaxsiy, metodik, texnologik kompetensiyalar pedagogdagi ushbu jihatlarni takomillashtirishga yordam beradi.

Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan pedagogda o'z aksini topadigan jihatlar		
1.	Egallagan bilimlarini muntazam ravishda boyitib borishga harakat qiladi.	Bu jarayonni amalga oshirish o'qituvchida doimiy ravishda harakatda bo'lish, maxsus kompetentlikni talab etadi.
2.	Yangi axborotlarni o'zlashitirishga intiladi.	Informatsion kompetentlik asosida ish olib borish bilan belgilanadigan jarayon hisoblanadi.
3.	Davr talablarini chuqur anglay oladi.	Bu jihat ijtimoiy va kreativ kompetentliklarni o'zida mujassam etgan holatda o'z aniq ifodasini topadi.
4.	Doimo yangi bilimlarni izlab topishga chanqoq bo'ladi.	O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, innovatsion kompetensiya bu kabi jihatlar shakllanishida katta xizmat qiladi
5.	Olgan yangi axborotlarni qayta ishlaydi va kundalik hayotdan o'z o'rnida qo'llay oladi.	Shaxsiy, metodik, texnologik kompetensiyalar pedagogdagi ushbu jihatlarni takomillashishiga yordam beradi.

2-jadval. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan pedagogdagi jihatlar hamda ularning namoyon bo'lishida asos bo'ladigan sifatlar.

Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A., Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.

O'qituvchining kasbiy kompetensiya tizimi-pedagogik mahorat orqali namoyon bo'ladi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirishda umumiylikdan xususiy mahoratga qarab boriladi. Umumiy mahorat-bu pedagogik fikr-mulohaza yuritish va faoliyatni amalga oshirish hisoblanadi, fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilishga undaydi. Pedagog uchun zarur bo'lgan mahoratning bu ikki unsurini birlashtirish asosida konkretlikdan abstraklikka, ya'ni aniqlikdan mavhumlik tomon boriladi.

Ular sezgi, tafakkur va nazariy asoslarda yuz beradi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga uyg'un tarzidagi faoliyati hisoblanadi.

1. Kasbiy kompetensiya o'qituvchi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat, ko'nikma;
2. Muammolarni muvaffaqiyatli yechish qobiliyati, oliy darajadagi kasbiy mahorat.
3. Kasbiy faoliyati davomida pedagog tomonidan qo'llanilgan turli texnologiyalar, metodlar va usullar yig'indisi.
4. Faoliyat jarayonida va faoliyatdan tashqarida mujassam bo'lgan tajribalar yig'indisi, pedagogik faoliyatdagi katta tajriba.

O'qituvchining kasbiy kompetensiya bazasi shundan iboratki, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi muhitni hosil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. O'quvchilardahar bir tashkil etilgan dars jarayonidan ma'lum bilim, ko'nikma, malaka hamda eng muhimi mana shularni qo'llay oladigan kompetentlik shakllanishi kerak. Ta'lim jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, bunda o'quvchilarda har bir mashg'ulotga qiziqish orsin, shu bilan birga o'ylash va munozara yuritish, dolzarb savollarni qo'ya olish, mustaqil tafakkurni shakllantirish, g'oyalar yaratishga o'rgatish, turli xil nuqtai nazarlarni aytish ko'nikmalari yuzaga chiqishi maqsadga muvofiq.

Har bir jonkuyar o'qituvchining maqsadi dars jarayonidagi vaziyatlarni "rivojlantiruvchi muhit"ga aylantira olishga asoslanishi joiz. Shundagina tashkil etilgan dars jarayoni o'zining yuqori samarasini beradi. Buning uchun o'qituvchi o'z faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borishi kerak. Kasbiy kompetensiya esa bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanib yuzaga keladi:

1. Ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsinini ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishi lozim.
2. O'quvchilar imkoniyatlarini ta'lim natijalariga ko'ra baholashni ta'minlash va o'z-o'zini baholash jarayonida uni qo'llash.
3. O'quvchilarni mustaqil ravishdagi faoliyatlarini tashkil etish hamda ularning motivatsiyasi va mas'uliyatini oshirishda turli shakllardan foydalanish.
4. Har bir millatning tarixi va madaniyati, oila va jamiyat qadriyatlarini hurmat qilish va unga amal qilish.
5. O'zgalar va o'z fikrini hurmat qilish, xushmuomala bo'lish.
6. O'z xato va kamchiliklarini bilishi va uni mustaqil ravishda tuzata olish. Albatta, bu jarayon o'qituvchida o'z faoliyatini to'g'ri tahlil qila olishi bilan birgalikda kechadi.
7. Hayot xavfsizligi va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallagan bo'lishi kerak.

Mulohazalar. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos bo'lgan kasbiy kompetentlik hamda uning o'ziga xos tomonlari o'rganilgan. Kasbiy kompetensiya borasida olimlarning yuritgan fikr-mulohazalarini tahlil qilish jarayonga doir qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishni ko'rsatadi.

V.Slastenin, I.Isayev va boshqalar o'zining "Pedagogika" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida kasbiy kompetensiyaga pedagog kasbini boshqaruvchi va shakllantiruvchi tamoyil deb ta'riflaydi. Bunda o'qituvchi amaliy va nazariy tayyorgarlik asosida kasbiy mahoratini namoyon qiladi.[9; 24-b.]

Bolotov V.A. va Serikov V.V.larning fikricha, kasbiy kompetensiya o'qituvchidagi bilimdonlik bilan emas, balki uning vaziyatni qanday baholay olishi hamda turli muammolarga yechim topa ola bilish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan o'lchanadi. Bu esa pedagoglar uchun zarur qobiliyat hisoblanadi. [8; 63-b.]

Bondorevskaya Y.V., Kulnevich S.M.ning ilmiy ishlarida talabalar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar ularning pedagogik faoliyatini tashkil etishda ishtirok etishi lozim deya fikr yuritganlar. [4;11-b.]

Barcha olimlarning kasbiy kompetensiya borasida aytib o'tgan mulohazalarini jamlaydigan bo'lsak, kasbiy kompetensiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbga aloqador zaruriy layoqat, qobiliyatlarni egallashlari bilan belgilanadi.

Markova A.K. o'zining olib borgan izlanishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy qismlar iborat ekanligini izohlab bergan:

1. Maxsus yoki kasbiy kompetentlik.
2. Ijtimoiy kompetentlik.
3. Shaxsiy kompetentlik.
4. Individual kompetentlik.[7;85-b.]

Xutorskiy A.V. ta'lim jarayonida o'qituvchining yetti kompetensiyasini tavsiflab beradi:

1. Dunyoqarashida kelib chiqqan tarzda ya'ni qadriyat va o'zini anglash-o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U tevarak atrofdagi har qanday voqea va hodisalarning tub mohiyatini anglay oladi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammoga yechimni topa oladi. Bu kompetensiya-o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga egallash; mamlakatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm- fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va bu jihatlarni o'quvchilarga ham tushuntira olishi.

3. O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7. O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi. Hissiyotini boshqarish.[7;61-b.]

Pedagog olimo Xurvaliyeva T.L. kasbiy kompetensiya tizimini besh guruhga asoslaydi.

Kasbiy kompetensiya:

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarni chuqur egallagan bo'lishi;
- o'z ustida muntazam ravishda ishlashi hamda o'rganish, tadqiqot ishlarini olib borishi;
- ta'lim jarayonini diagnostika qila olish, har bir vaziyatni baholay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- o'quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
- o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- ta'lim muhitiga innovatsion yangiliklar kirita bilish;
- o'z fanini mukammal tarzda bilishi;
- ingliz tilini yaxshi bilishi.

T.L.Xurvaliyeva kasbiy kompetensiyani turlarga ajratgan holda tahlil qilishni taklif qilib, uning shakllanish bosqichlarini 3 ga airatadi:(3-rasm)



3-rasm.

Xurvaliyeva L.T. xulosalariga ko'ra kasbiy kompetensiyaning bosqichlari. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik.

Pedagoglarda namoyon bo'lishi kutiladigan shaxsiy kompetensiya sifatлари:

- muloqotchanlik;
- bag'rikenglik;
- yetakchilik, liderlik xususiyatiga ega bo'lish;
- faol, tashabbuskor;
- moslashuvchan;

- sog'lom turmush tarziga amal qilishi;
- mas'uliyatli;
- ishchan;
- insonparvar;
- umummadaniy;
- ma'lumotli;
- madaniyatli;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- milliy madaniyatga ega bo'lish;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish va har bir jarayonga befarq bo'lmaslik.[4;23-b.]

Kasbiy kompetensiyalar bevosita maxsus yoki kasbiy kompetentlik, autokompetentlik, ekstremal kasbiy kompetentlik, ehtimoliy kompetentlikni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Kasbiy metodik kompetensiyani takomillashtirishda motivatsion, intellektual-ijodiy, o'z-o'zini takomillashtirish, ijtimoiy-kommunikativ, natijaviy-yakuniy bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan kasbiy kompetensiyalarning samarali ekanligini ta'kidlashning boshlang'ich bosqichi, moslashuvchi bosqich, reflektiv va faoliyatli bosqichlarini tizimli tashkil eta olish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. [18;602-b.]

Himmataliyev D.O. kasbiy-metodik kompetensiya hamda kompetentlikdagi bog'liqlikni ta'minlab, kurslar kesimida shaxsning kasbiy rivojlanish bosqichlarini, kompetentliklar mazmunini, mutaxassisliklar shaxsi sifatlarini o'zaro bog'lab ko'rsatadi. Tayyorlik motivasion, hissiy-irodaviy, munosabat-xulq-atvor va baholash komponentlarini o'z ichiga olgan shaxsiyatning integral shakllanishi sanaladi.[10; 12-b.]

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, pedagogda kasbiy kompetensiyaning shakllanishi ta'lim sifatini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Zero, o'qituvchining jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi o'zida kasbiy faoliyatga doir kompetensiyalarni, ko'nikma va malakalarni qay darajada shakllantirishi hamda rivojlantirishi bilan chambarchas bog'liq. Bugungi jadal rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotda o'zining kasbiy faoliyati, pedagogik mahorati bilan nom qozonishni istagan har qanday jonkuyar pedagog tinimsiz izlanish, o'rganishni amalga oshirgan holda jarayonni tashkil qilishi joiz.

Shu kabi jihatlarni hisobgan olgan holda, o'qituvchilardagi kasbiy kompetentlikni shakllantirishda xizmat qiladigan bir necha tasviyalar berib o'tishimiz foydadan holi emas:

O'qituvchi, pedagoglar uchun ulardagi kasbiy kompetentlik shakllanishi hamda takomillashuvi asosiy maqsad qilib qo'yilgan seminar-treninglar tashkil etish.

Bo'lajak o'qituvchilardagi kasbiy kompetensiya bilan bog'liq bilimlar mustahkamlanishi uchun barcha uslubiy tavsiyalarni berish.

O'qituvchilarda kasbiy kompetensiyaning yuzaga kelishi uchun talab etiladigan barcha kerakli shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida" PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/doss/4312785>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida" 287-sonli Qarori. <https://lex.uz/doss/4814154>

3. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. -Toshkent. 120 b.

4. Axmedova M.T. (2018) Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. T.:Nizomiy nomidagi TDPU.

5. Asadov Y.M. (2014) Boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi // Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi tezislari to'plami. -Toshkent. -10 -14 b

6. Xutorskoy A.V. (2003) Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnost-no-oriyentirovannoy paradigmy obrazovaniya // Nar. Obrazovaniye. - Moskva. -№ 2. - S. 58-64.

7. Markova, A.K. (1990) Psikhologicheskiy analiz professional'noy kompetentnosti uchitelya Tekst. / A.K. Markova //Sovetskaya pedagogika. № 8. - S. 82-87. - ISSN 0869-56IX.

8. Bolotov V.A., Serikov V.V. (2003) Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazovatelnoy programmoy. Pedagogika. № 3.

9. Slastenin V.A. (2002) Obshaya pedagogika. -Moskva.